

**FUQAROLIK SUD ISHLARINI ELEKTRONLASHTIRISHDA “RAQAMLI
SUD KONSEPSIYASI” NING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI**

Qobilov Nozimjon Qosim o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik sud ishlarini elektronlashtirish jarayoni, "Raqamli sud" konsepsiyasining mazmun-mohiyati hamda 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli Prezident Farmoni asosida belgilangan vazifalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tahliliy va statistik metodlardan foydalanilgan. Maqolada Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya va Xitoy davlatlari tajribasi o‘rganilib, milliy qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar ilgari surilgan. Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni sud jarayonlariga joriy etishning huquqiy, tashkiliy va texnik jihatlari yoritilgan, shuningdek, sohaga oid muammolar va ularni hal qilish yo‘llari ko‘rsatilgan.*

***Kalit so‘zlar:** raqamli sud, fuqarolik sud ishlari, elektron sud, sun‘iy intellekt, sud tizimini raqamlashtirish, PF-140-son Farmon, e-sud, masofaviy sud majlisi, elektron hujjat aylanmasi, odil sudlov.*

Kirish. Bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini raqamlashtirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida sud ishlarini elektron shaklga o‘tkazish, sud jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash, fuqarolar uchun odil sudlovga erishish darajasini oshirish kabi vazifalar markaziy o‘rinda turibdi.

Mavzuning dolzarbligi. Sud tizimini raqamlashtirish nafaqat texnologik, balki huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan kompleks jarayondir. Mazkur jarayonning huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi¹, Fuqarolik protsessual kodeksi², "Sudlar to‘g‘risida"gi Konstitutsiyaviy qonun, shuningdek, sud-huquq islohotlariga oid Prezident farmonlari va qarorlari tashkil etadi. Xususan, 2025-yil 21-avgustda qabul qilingan PF-140-sonli Prezident Farmoni³ sud tizimini raqamlashtirish va sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha yangi bosqichni boshlab berdi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — fuqarolik sud ishlarini yuritishda "Raqamli sud" konsepsiyasining nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berish, uning qonuniy asoslarini tahlil qilish, joriy etish bosqichlarini o‘rganish hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini umumlashtirish asosida milliy qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqishdir. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, raqamli sud konsepsiyasining tushunchasi va huquqiy asoslarini aniqlash; ikkinchidan, PF-140-sonli Farmonning asosiy yo‘nalishlarini yoritish; uchinchidan, fuqarolik sud ishlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliy jihatlarini ko‘rib chiqish; to‘rtinchidan, xorijiy tajribani tahlil qilish; beshinchidan, sohadagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar berish.

¹O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 1-may referendum natijalariga ko‘ra qabul qilingan tahririda). 19-modda. — T.: "O‘zbekiston", 2023.

²O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi: 22.01.2018-y., O‘RQ-460-son. 6, 84, 98-moddalar. URL: <https://lex.uz/docs/-3517337>.

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli "Sudlar faoliyatiga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta‘minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-7696567>. SJIF: 5.051

Tadqiqot metodlari. Mazkur ilmiy tadqiqotda dialektik bilish metodi umumiy uslubiy asos sifatida qoʻllanildi. Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi maxsus ilmiy bilish metodlaridan foydalanildi:

Formal-yuridik metod — ushbu metod yordamida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik protsessual kodeksi, "Elektron raqamli imzo toʻgʻrisida" hamda "Elektron hujjat aylanishi toʻgʻrisida"gi qonunlar, PF-140 va PF-6079 sonli Prezident farmonlari kabi normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili amalga oshirildi. Mazkur metod sud ishlarini elektronlashtirishga oid huquqiy normalarning mohiyati, mazmuni va oʻzaro bogʻliqligini aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy-huquqiy metod — Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya va Xitoy Xalq Respublikasi singari xorijiy davlatlarda sud tizimini raqamlashtirish tajribasini Oʻzbekistondagi amaliyot bilan qiyoslash uchun foydalanildi⁴. Bu metod milliy huquqiy tizim uchun samarali xorijiy modellarni aniqlash va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatini yaratdi.

Tizimli-tahliliy metod — "Raqamli sud" konsepsiyasini yagona, oʻzaro bogʻliq elementlardan iborat tizim sifatida oʻrganishga xizmat qildi. Mazkur metod yordamida konsepsiyaning huquqiy, tashkiliy, texnik va ijtimoiy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilindi.

Tarixiy-huquqiy metod — Oʻzbekistonda sud-huquq tizimini raqamlashtirish jarayonining bosqichlarini, jumladan, "E-SUD" axborot tizimining shakllanishi va rivojlanishini tarixiy nuqtai nazardan oʻrganishda qoʻllanildi⁵.

⁴Reiling D. Technology for Justice: How Information Technology Can Support Judicial Reform. — Leiden: Leiden University Press, 2009. — P. 87–92.

⁵Mamasiddiqov M., Esanova Z., Habibullayev D. Fuqarolik protsessual huquqi: Darslik. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018. — B. 142–145.

Statistik metod — sud organlari faoliyatiga oid raqamli ko‘rsatkichlarni, jumladan, elektron shaklda yuritilayotgan ishlar soni va dinamikasini tahlil qilish uchun ishlatildi.

Sotsiologik-huquqiy metod — fuqarolarning elektron sud xizmatlaridan foydalanish darajasi, ularning bu xizmatlarga munosabati hamda "raqamli tafovut" muammosi yuzasidan ma'lumotlar to'plash va tahlil qilishda qo'llanildi.

Ushbu metodlar majmuasi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslangan, ob'ektiv va amaliy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sud tizimini raqamlashtirish va elektron sud ishlarini yuritish bo'yicha jahon ilmiy adabiyotida sezilarli darajada ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Britaniyalik mualliflar R. Susskindning "Online Courts and the Future of Justice" asarida onlayn sudlar konsepsiyasi va ularning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ilgari surilgan⁶.

Italiyalik tadqiqotchi M. Velicogna o'z ishlarida elektron tarzda odil sudlovga erishish masalasini Yevropa davlatlari tajribasi misolida ko'rib chiqqan⁷. Avstraliyalik olim T. Sourdin esa sun'iy intellektning sud qarorlariga ta'siri va "sud o'rniga robot" muammosini o'rgangan⁸. Yevropa Kengashining "Sud tizimlarida sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha Yevropa axloqiy xartiyasi" hujjati ushbu sohada xalqaro andozalarni belgilaydi⁹.

Milliy ilmiy adabiyotlar orasida M. Mamasiddiqov, Z. Esanova va D. Habibullayevlarning "Fuqarolik protsessual huquqi" darsligi fuqarolik sud ishlarini

⁶Susskind R. Online Courts and the Future of Justice. — Oxford: Oxford University Press, 2019. — P. 45–58.

⁷Velicogna M. Electronic Access to Justice: From Theory to Practice and Back // Droit et Société. — 2018. — № 99. — P. 263–280.

⁸Sourdin T. Judge v Robot? Artificial Intelligence and Judicial Decision-Making // University of New South Wales Law Journal. — 2018. — Vol. 41(4). — P. 1114–1133.

⁹Council of Europe. European Ethical Charter on the Use of Artificial Intelligence in Judicial Systems and their Environment. — Strasbourg: CEPEJ, 2018. — P. 12–18.

yuritishning umumiy nazariy asoslarini ochib bergan. A.X. Saidovning "Yangi O'zbekistonning huquqiy asoslari" monografiyasida zamonaviy O'zbekistonda olib borilayotgan huquqiy islohotlar, jumladan, sud-huquq sohasidagi o'zgarishlar tahlil etilgan¹⁰. A. Rasulovning maqolalarida fuqarolik sud ishlarini yuritishni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan¹¹.

Shuni ta'kidlash lozimki, milliy huquqshunoslikda "Raqamli sud" konsepsiyasi va PF-140-sonli Farmon doirasidagi sun'iy intellektni sud ishlariga joriy etish masalalari hozirgacha yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

"Raqamli sud" konsepsiyasining tushunchasi va huquqiy asoslari. "Raqamli sud" — bu sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarini elektron-axborot tizimlari, telekommunikatsiya kanallari, sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirishni nazarda tutuvchi yagona integratsiyalashgan platformadir. Mazkur konsepsiya doirasida fuqarolarning sudga murojaat qilishi, sud hujjatlarini taqdim etish, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish, sud qarorlarini elektron shaklda qabul qilish va ijro etish kabi jarayonlar to'liq raqamlashtiriladi.

Raqamli sud konsepsiyasining huquqiy asoslari sifatida quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarni keltirish mumkin:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga ko'ra, har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari ustidan sudga

¹⁰Saidov A.X. Yangi O'zbekistonning huquqiy asoslari va islohotlar strategiyasi. — Toshkent: "Adolat", 2022. — B. 215–220.

¹¹Rasulov A. Sud-huquq islohotlari sharoitida fuqarolik sud ishlarini yuritishni takomillashtirish masalalari // O'zbekiston yuridik jurnali. — 2023. — № 4. — B. 32–41.

shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Bu kafolat zamonaviy sharoitda raqamli xizmatlar orqali ham ta'minlanishi lozim.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (FPK) fuqarolik ishini elektron shaklda shakllantirish imkoniyatini nazarda tutadi. FPK normalariga muvofiq, fuqarolik ishi elektron shaklda yuritilganda sud hujjatlari sudyaning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi, sud majlislarining bayonnomalari raislik qiluvchining va sud majlisi kotibining elektron raqamli imzosi bilan rasmiylashtiriladi¹². Murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni davlat organlari, jumladan, sud tizimini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha strategik yo'nalishlarni belgilab berdi¹³.

To'rtinchidan, 2025-yil 21-avgustda qabul qilingan PF-140-sonli Prezident Farmoni — bevosita "Raqamli sud" konsepsiyasini joriy etish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni bosqichma-bosqich tashkil etishni nazarda tutadi.

PF-140-sonli farmonning asosiy yo'nalishlari va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli Farmoni sud tizimini raqamlashtirish bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan keng ko'lamli chora-tadbirlarni belgilab beradi. Mazkur Farmon "Raqamli O'zbekiston

¹²O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. 6-modda "Fuqarolik ishi" qismi. URL: <https://lex.uz/docs/-3517337>

¹³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz>
SJIF: 5.051

— 2030" strategiyasining maqsadlari bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lib¹⁴, sud sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini ifodalaydi.

Farmonning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

a) "Raqamli sud" konsepsiyasini joriy etish. Mazkur konsepsiya doirasida sud ishlari va hujjat aylanmasi bosqichma-bosqich to‘liq elektron tizimga o‘tkaziladi; sud majlislari masofadan turib kuzatilishi mumkin bo‘ladi; fuqarolar va advokatlar sud hujjatlariga onlayn tarzda murojaat qilishi uchun qulay platformalar yaratiladi¹⁵.

b) Sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish. Sudlar faoliyatida sun‘iy intellektdan foydalanish — sud xarajatlarini oldindan hisoblash, hujjatlar bilan ishlash va ma‘lumotlarni qidirish jarayonlarini avtomatlashtirish, ish taqsimotini ob‘ektiv tarzda amalga oshirish, sudyalarda uchun yordamchi tahliliy tizimlarni yaratish kabi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi¹⁶.

v) Iqtisodiy sudlar tuzilmasini maqbullashtirish. Iqtisodiy sud ishlarini yuritish samaradorligini oshirish, ishlarni ko‘rib chiqish muddatlarini qisqartirish hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish darajasini yuksaltirish nazarda tutilgan.

g) Sudlarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash. Farmonga muvofiq, 2025—2030-yillarda sud binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash ishlari amalga oshiriladi¹⁷.

¹⁴Sud tizimida yangi davr: PF-140-sonli Farmonning ahamiyati va istiqbollari // gov.uz. — 2025. URL: <https://gov.uz/oz/uzun/news/view/81588>

¹⁵O‘sha manba. III bo‘lim: "Raqamli sud" konsepsiyasini joriy etish.

¹⁶Sudlarga oid 21.08.2025-yildagi PF-140-sonli Farmon // Journal of New Century Innovations. — 2025. — № 10. URL: <https://journalss.org/index.php/new/article/view/2361>

¹⁷PF-140-son Farmonga 1-ILOVA: 2025—2027-yillarga mo‘ljallangan sud sohasini raqamlashtirish va odil sudlov jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish DASTURI.

d) Sudyalar va sud xodimlarining malakasini oshirish. Farmon doirasida sudyalar va sud apparati xodimlari zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha doimiy ravishda o'qitiladi, maxsus o'quv kurslari tashkil etiladi va xorijiy tajriba o'rganiladi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bir qator bosqichlarni va tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, fuqarolik ishini elektron shaklda shakllantirish — bu sud tizimini raqamlashtirishning poydevoridir. Hozirgi vaqtda "E-SUD" yagona axborot tizimi orqali ishtirok etuvchi shaxslar sud hujjatlarini elektron shaklda taqdim etish, sud xarajatlarini onlayn to'lash, sud majlislari jadvali bilan tanishish kabi imkoniyatlardan foydalanmoqda.

Birinchidan, da'vo arizalarini elektron shaklda taqdim etish tizimi. FPKning amaldagi normalariga muvofiq, da'vogar (ariza beruvchi) o'z talabini sudga elektron hujjat shaklida yuborishi mumkin¹⁸. Ikkinchidan, sud majlislarining masofaviy (videokonferensaloqa orqali) tartibda o'tkazilishi hududiy uzoqlikda joylashgan ishtirokchilar uchun, shuningdek, favqulodda holatlar sharoitida fuqarolik sud ishlarini to'xtatmasdan yuritish imkonini beradi.

Uchinchidan, sud hujjatlarini elektron raqamli imzo (ERI) yordamida tasdiqlash. ERI sud hujjatlarining yuridik kuchini ta'minlovchi muhim element bo'lib, hujjatning haqiqiyliги va o'zgarmaganligi bo'yicha kafolat beradi¹⁹. To'rtinchidan, sud qarorlarini elektron e'lon qilish va e'lon bazasi sud amaliyotining bir xil tatbiq etilishini ta'minlaydi. Beshinchidan, sun'iy intellekt

¹⁸O'sha manba. 173, 191-moddalar.

¹⁹O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi O'RQ-562-sonli Qonuni. URL: <https://lex.uz>

asosidagi sud xarajatlarini onlayn hisoblash xizmati fuqarolarga huquqiy harakatlarni rejalashtirishda yordam beradi.

Raqamli sud konsepsiyasini joriy etishning xorijiy tajribasi. Sud tizimini raqamlashtirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Jahonning bir qator rivojlangan davlatlari ushbu sohada ilg'or natijalarga erishgan.

Estoniya tajribasi. Estoniya elektron davlat boshqaruvi va elektron sud tizimini joriy etishda jahon yetakchilaridan biri hisoblanadi. "E-Estonia" konsepsiyasi doirasida fuqarolar deyarli barcha davlat xizmatlarini, jumladan, sud xizmatlarini onlayn tarzda olishlari mumkin. Estoniyada sud ishlarining katta qismi elektron shaklda yuritiladi, sud hujjatlari raqamli imzo bilan tasdiqlanadi va elektron arxivda saqlanadi.

Singapur tajribasi. Singapur sud tizimi "Smart Court" konsepsiyasi asosida tashkil etilgan bo'lib, sun'iy intellekt va big data texnologiyalaridan keng foydalanadi. Singapur sudlarida sud ishlarini ko'rib chiqish muddatlari sezilarli darajada qisqartirilgan, sud qarorlarining mazmuni va sifati esa yuksaltirilgan.

Janubiy Koreya tajribasi. Koreya Respublikasida "E-Court" tizimi 2010-yildan boshlab ishga tushirilgan bo'lib, hozirda fuqarolik ishlarining katta qismi to'liq elektron shaklda yuritiladi. Tizimning muhim xususiyati — sud hujjatlarining bir necha tilda avtomatik tarjima qilinishi, shuningdek, sun'iy intellekt yordamida ishlarning oldindan tahlili amalga oshirilishidir.

Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi. Xitoyda 2017-yildan boshlab "Internet sudi" (Hangzhou Internet Court) faoliyat ko'rsatmoqda, u to'liq onlayn rejimda fuqarolik ishlarini ko'rib chiqadi. Bunday sudlarda sun'iy intellekt yordamchi

sudya vazifasini bajaradi, blokcheyn texnologiyalari esa raqamli dalillarni saqlash uchun ishlatiladi²⁰.

Raqamli sudni joriy etishdagi muammolar va istiqbollar.
Birinchi muammo — qonunchilik bazasini takomillashtirish zarurati. Hozirgi Fuqarolik protsessual kodeksi elektron sud ishlarini yuritishning umumiy normalarini belgilagan bo'lsa-da, ko'plab amaliy masalalar (sun'iy intellekt qarorlarining yuridik kuchi, blokcheyn dalillar maqomi, raqamli identifikatsiya tartibi) ochiq qolmoqda.

Ikkinchi muammo — "raqamli tafovut" (digital divide). Aholi orasida raqamli savodxonlik darajasining notekisligi, ayniqsa, qishloq joylari va keksa fuqarolar uchun elektron sud xizmatlaridan foydalanishni qiyinlashtiradi.

Uchinchi muammo — kiberxavfsizlik. Sud tizimini raqamlashtirish kiberhujumlar va shaxsiy ma'lumotlarning sizib chiqishi xavfini keltirib chiqaradi. Sud hujjatlari va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun zamonaviy kriptografik usullardan foydalanish lozim.

To'rtinchi muammo — sun'iy intellekt qarorlarining etik va huquqiy jihatlari. Sun'iy intellekt sudyalarning xulosa chiqarishida yordamchi vosita sifatida foydalanilishi mumkin, biroq pirovard qaror har doim insonga — sudyaga tegishli bo'lishi kerak. Bu masala bo'yicha aniq huquqiy normalar ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar va takliflarni shakllantirish mumkin:

Birinchiidan, "Raqamli sud" konsepsiyasi sud-huquq tizimini takomillashtirishning zaruriy va mantiqiy davomi bo'lib, uning huquqiy asoslari

²⁰Hangzhou Internet Court rasmiy ma'lumotlari // China Justice Observer. — 2023.
SJIF: 5.051

Konstitutsiya, Fuqarolik protsessual kodeksi va PF-140-sonli Farmon kabi normativ hujjatlarda mustahkamlangan.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni sud ishlariga joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va doimiy nazoratga olinishi lozim. Bu jarayonda Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi davlatlarning yutuqlarini o'rganish va milliy sharoitga moslashtirib qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, sohaga oid muammolarni hal qilish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

1) FPKga elektron sud ishlarini yuritishga doir maxsus bo'limni kiritish hamda sun'iy intellekt va boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanish tartibini batafsil tartibga soluvchi qonun loyihasini ishlab chiqish;

2) sud tizimida yagona elektron platformani — fuqarolar, advokatlar, sudyalar, prokuratura va boshqa ishtirokchilar uchun integratsiyalashgan ekotizimni shakllantirish;

3) sun'iy intellekt asosidagi sud ishlarini avtomatik tahlil qilish va ishlarni taqsimlash tizimini joriy etish;

4) raqamli sud xizmatlaridan foydalanishda ko'maklashuvchi maxsus konsultativ markazlarni tashkil etish, ayniqsa, mahalliy hududlarda;

5) sudyalar va sud apparati xodimlari uchun raqamli texnologiyalar va kiberxavfsizlik yo'nalishida muntazam o'quv kurslari tashkil etish;

6) xorijiy tajribani muntazam o'rganib borish va xalqaro tashkilotlar (UNDP, Jahon banki, Yevropa Kengashi) bilan hamkorlikni kengaytirish.

Kelajakda raqamli sud konsepsiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakatimiz sud tizimining xalqaro standartlarga to'la mos kelishini,

fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, qonun ustuvorligini mustahkamlash, demokratik huquqiy davlatni qurishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 1-may referendum natijalariga ko'ra qabul qilingan tahririda). — T.: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi: 22.01.2018-y., O'RQ-460-son. URL: <https://lex.uz/docs/-3517337>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-7696567>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — Manba: Lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabdagi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi O'RQ-562-sonli Qonuni. — Manba: Lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi O'RQ-611-sonli Qonuni. — Manba: Lex.uz.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi O‘RQ-439-sonli Qonuni. — Manba: Lex.uz.

II. Maxsus adabiyotlar:

8. Mamasiddiqov M., Esanova Z., Habibullayev D. Fuqarolik protsessual huquqi: Darslik. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018. — 624 b.

9. Saidov A.X. Yangi O‘zbekistonning huquqiy asoslari va islohotlar strategiyasi. — Toshkent: "Adolat", 2022. — 384 b.

10. Rasulov A. Sud-huquq islohotlari sharoitida fuqarolik sud ishlarini yuritishni takomillashtirish masalalari // O‘zbekiston yuridik jurnali. — 2023. — № 4. — B. 32–41.

11. Sudlarga oid 21.08.2025-yildagi PF-140-sonli Farmon // Journal of New Century Innovations. — 2025. — № 10. URL: <https://journals.org/index.php/new/article/view/2361>.

12. Reiling D. Technology for Justice: How Information Technology Can Support Judicial Reform. — Leiden: Leiden University Press, 2009. — 320 p.

13. Susskind R. Online Courts and the Future of Justice. — Oxford: Oxford University Press, 2019. — 368 p.

14. Velicogna M. Electronic Access to Justice: From Theory to Practice and Back // Droit et Société. — 2018. — № 99. — P. 263–280.

15. Sourdin T. Judge v Robot? Artificial Intelligence and Judicial Decision-Making // University of New South Wales Law Journal. — 2018. — Vol. 41(4). — P. 1114–1133.

16. Council of Europe. European Ethical Charter on the Use of Artificial Intelligence in Judicial Systems and their Environment. — Strasbourg: CEPEJ, 2018. — 76 p.

